DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-52 Pages: 466-470

Oriental Journal of Philology



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about



LINGUOPRAGMATIC FUNCTIONS OF SUBORDINATINGS UNITS IN ARABIC

Nargiza I. Mustafoyeva
Higher School of Arab Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
Email: nargiza.mustafayeva@my.com
Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: Subordinate linking units in the Arabic language (defining, explanatory, connecting, emphasizing words) and their expression, linguo-pragmatic function, demarcation of the field of imagination.

Received: 06.03.25
Accepted: 08.03.25
Published: 10.03.25

Abstract: In this article, information is given about the units that form the subordinating link in the Arabic language, as well as their peculiarities in expressions and linguo-pragmatic functions. It is the first time that these functional properties have been investigated, and in the process it has been established through examples and concrete conclusions that these units do not belong to a group based solely on the formation of a subordinating conjunction.

ARAB TILIDA TOBE BOG‘LANISHNI HOSIL QILUVCHI BIRLIKLARNING LINGVOPRAGMATIK FUNKSIYALARI

Nargiza I. Mustafoyeva
Stajor-o‘qituvchi
Arabshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Email: nargiza.mustafayeva@my.com
O‘zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Arab tilidagi tobe bog‘lanish hosil qiluvchi birliklar (aniqlovchi, izohlovchi, bog‘lovchi, ta’kidlov so‘zlar) hamda ularning ifodalanishi, lingvopragmatik funksiya, tasavvur maydonini chegaralash.

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilidagi tobe bog‘lanishni hosil qiluvchi birliklar hamda ularning ifodalanishlardagi o‘ziga xosligi hamda lingvoprogmatik funksiyalari haqida ma’lumot beriladi. Ularning ushbu funksiyaviy xususiyatlariga ko‘ra tadqiq etish ilk bor amalga oshirildi hamda bu jarayonda ushbu birliklar faqatgina tobe bog’lanishning hosil qilinishigagina ko‘ra bir guruhga kirmasligi misollar va aniq

xulosalar yordamida aniqlandi.

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ ПОДЧИНИТЕЛЬНЫХ ЕДИНИЦ В АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ

Наргиза И. Мустафоева
Стажер-преподаватель
Высшая школа арабских исследований
Ташкентский государственный университет востоковедения
Email: nargiza.mustafayeva@my.com
Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Подчинительные-связующие единицы в арабском языке (определяющие, поясняющие, связующие, подчеркивающие слова) и их выражение, лингвопрагматическая функция, разграничение поля воображения.

Аннотация: В данной статье даются сведения о единицах, образующих подчинительное звено в арабском языке, а также об их особенностях в выражениях и лингвопрагматических функциях. Эти функциональные свойства исследуются впервые, и при этом на примерах и конкретных выводах установлено, что эти единицы не принадлежат к группе, основанной исключительно на образовании.

Kirish. Ma’lumki, tilshunoslikning tadqiqot obyektiga bugungi kunda til va inson omili asosiy o‘rin egallagan. Shundan so‘ng, tilshunoslikda bir qancha yangi yo‘nalishlar yuzaga kela boshladi, ya’ni, nazariy tilshunoslik asosida amaliy tilshunoslik shakllandi va rivojlana boshladi. Insonning obyektiv olamdagi ijtimoiy faoliyati in’ikosi bo‘lgan uning «harakat»dagi, «jonli» nutqini tadqiq etish faqat nazariy tilshunoslik uchungina emas, balki uning psixolingvistika, sotsiolingvistika, kommunikativ tilshunoslik, neyrolingvistika kabi umumtarmoqlari uchun ham katta ahamiyatga egadir. “Pragmatika” atamasini birinchi marta amerikalik olim Charlz Sanders Pirs kiritgan. Ayniqsa, XX asrning 20-30-yillarida pragmatizm keng tarqala boshladi. Amerika va Yevropa tashviqotining kengayishi uchun Charlz Pirs, Karnap, Charlz Morris va Vitgenshteynlarning xizmatlarini alohida ta’kidlash kerak. “Pragmatika” atamasi XX asr 30-yillarning oxirlarida Ch. U. Morris tomonidan ilmiy foydalanishga kiritilgan(Safarov, 2008, p.71).

Lingvopragmatika zamonaviy tilshunoslikning bir bo‘limidir. Ushbu yondashuv nutqqa inson faoliyatining asosiy turlaridan biri sifatida yondashadi: fikr almashish va boshqalarga ta'sir qilish va uning ixchamligi, samaradorligi va unumdorligini, mantiqiyligini o‘rganishga ustuvor ahamiyat beradi. Xususan, bugungi jahon tilshunosligi nutqning faoliyat turi va uning mazmuni, ko‘chma va tag ma’nolari, aniq ifodalanmaydigan, lekin maqsadi so‘zlovchining ifodasi bo‘lgan ma’lumotlarning qiymatini aniqlash usullarini ishlab chiqdi va u tezda nutqiy tilga

aylandi(Shodiyeva, 2023, p. 5). Bugungi kunga qadar arab tilida tobe bog‘lanishni hosil qiluvchi birliklar atroflicha yoritildi. Ularni bevosita va vosita bilan bog‘lanuvchilar guruhiga ajratilgan holda tahlil qilindi, ammo ular erobda ergashishiga ko‘ra bir umumiy guruhga birlashadi. Grammatik kategoriyaga ko‘ra bir guruhga kiribgina qolmay, balki lingvopragmatik xususiyatga ko‘ra ham bir guruhga kiritishimiz mumkinmi degan savolga quyidagi maqolada keltirilgan ma'lumotlar orqali javob topamiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Mustafo G‘alayiniy “Al-jami ad-durs al-arobiyya”, Abdul Hodiy ”Muxtasar un-nahv”, Shavqi Doyf ”Al-muharis an-nahviyya”, Mahmud Sulaymon Yoqut ”At-tavobi fin-nahvi al-arobiy”, kabi bir necha arab olimlari ushbu mavzu bo‘yicha, umumiy grammatikani soddalashtirish xususida tadqiqotlar borishgan.

Arab tilidagi tobe bog‘lanishni tashkil etuvchi birliklar masalasi tadqiqot obyekti sifatida tanlangan. Maqola mavzusini yoritishda analiz, sintez, tavsifiy, transformation, qiyosiy metodlardan foydalanildi.

Muhokama. Dunyo tillarining aksariyatida tilning nazariy va og‘zaki, ya’ni, amaliy qismi birmuncha farqlanadi. Ammo arab tilida esa, ushbu tafovut sezilmaydi. Bunga asosiy sabablardan biri shuki, arab tilining nazariy grammatikasi yaratilishida uning og‘zaki shakllari qolip sifatida olingan. Arab tili morfologik jihatdan flektiv tilllar oilasiga mansub bo‘lib, ularda qo‘shimchalarning so‘z tarkibiga qo‘shilinish o‘rni erkin bo‘ladi. Shuningdek, tavobelarning bir qismi bo‘lgan aniqlovchili birikmalarda dastlab aniqlanmish so‘ngra aniqlovchi keladi. Aksariyat tillarda esa buning aksi bo‘ladi. Masalan, turk tilida yeni oda(yangi xona), o‘zbek tilida qizil olma, fransuz tilida grand maison(katta uy) kabi misollarda dastlab aniqlovchi, so‘ngra aniqlanmish keladi, ya’ni, dastlab qizil,yangi, katta sifatlari inson tafakkurida shakllanib, so‘ngra unga xos predmet shakllantiriladi.(Plank, Frans, 2003, p.337).

Arab tilida esa, dastlab predmet beriladi, undan so‘ngra unga xos sifat keltiriladi. Masalan:

هاتف جديد- yangi telefon

حقيبة حمراء - qizil chamadon

Yuqorida nutqda telefon haqida gap borsa u haqida har bir shaxsda turlicha telefon tasavvuri shakllanadi, ammo unga yangi yoki uning modeli qo‘shilsa, telefon tinglovchilar tasavvurida umumiy va aniqroq shakllanadi.Faqat bu arab tilida dastlab telefon va chamadon so‘zlari aytilib, so‘ngra unga xos sifat unga to‘liq moslashgan holda keltiriladi.

Bu kabi birikmalar aniqlovchili birikma bo‘lib, arab tilida نعت yoki صفة deb nomlanadi. Bular kufiylar va basriylar o‘rtasida ishlatilovchi termin ekanligi haqida ma’lumot berib o‘tilgan edi. Ibn Yaish esa bu terminlarning ishlatilish o‘rniga ko‘ra, farqlanishini aytib o‘tadi. Masalan, نعت holatni ifodalovchi sifatlarga xos termin, deb ta’rif beradi : طويل وقصير -Uzun, qisqa kabi.

صفة esa fe’lning sifatga xoslangan shakli, ya’ni, sifatdoshlar bo‘lib, ular فاعل qolipida keluvchilarga nisbatan qo‘llanishi mumkinligini keltirib o‘tadi: خارج ضارب – uruvchi, chiquvchi kabi.

Arab tilida sifat asosan yasama so‘zlar bo‘lib, ular quyidagilar ifodalanib keladi:

1- Masdar bilan :موثوق به : أي هو رَجُلٌ ثِقَةٌ - U ishonchli odam

عَادلٌ : أي أنتَ رَجُلٌ عَدْلٌ – Sen adolatli odamsan.

2- Ko‘rsatish olmoshlari bilan :

شاهدتُ هذا الشارع- bu ko‘chani ko‘rdim

رجع أولئك المعلمون إلى البلدان العربية - O‘sha o‘qituvchilar arab o‘lkalariga qaytishdi.

Ko‘rsatish olmoshi bilan ifodalangan aniqlanmish doimo aniq holatda bo‘ladi, agar noaniq holatda ifodalansa, ot kesimli gapga aylanib qoladi.

Masalan:

هذه الطبيبة - mana bu shifokor …

هذه طبيبة - Bu- shifokor ayoldir.

3- "ذُو, ذَات" sohibi, egasi ma’nosini anglatuvchi bilan :

صاحب علمٍ : أي جَاءَ رَجُلٌ ذُو عِلمٍ – Ilm egasi bo‘lgan inson keldi.

كتبتْ امرأةٌ ذَاتَ فَضْلٍ هذه الرسالةَ - Bu xatni fazilatli ayol yozdi.

4- Nisbiy olmoshlar bilan :

المجتهدُ : أي ذَهَبَ الرَّجُلُ الذي اجتهد - Tirishqoq inson ketdi

5- Aniqlanmishning soni ifodalashda son bilan :

مَاتَ رجَالٌ أربعةٌ - To‘rt kishi o‘ldi.

6- Nisbiy sifat bilan :

رأيْتُ رجلا دِمشْقيًا - Damashqlik insonni ko‘rdim.

Ma’lumki, aniqlovchi aniqlanmishdan keyin keladi. Ammo nahvchi olimlarning fikricha aniqlovchi aniqlanmishdan oldin kelishi mumkin, agar aniqlanmish ikki yoki undan ortiq bo‘lsa. Masalan, قام زيدٌ العاقلان و عمرو kabi holatda bunda عاقلان sifati Zayd va Umar uchun ham tegishli bo‘lib, sifat aniqlanmishdan oldin kelmoqda.

Bog‘lovchi (عطف)da ham xuddi shunday holat yuz beradi.

Masalan, جاء محمد و طلحة - Muhammad va Tolha keldi.

Ushbu jumlada ham Muhammad kelganligi haqida ma’lumot hosil qilinib, so‘ngra u bilan birga Tolha ham kelganligi izohlanmoqda, ya’ni fikrning tushuncha maydoni yana ham kengaymoqda.

Ta’kidlov(تاكيد) so‘zlari yordamida tobelanadigan birliklar ham aynan shu fikrni tasdiqlaydi: إرفع يديك كليهما- Ikkala qo‘lingni ham ko‘tar !

إشتريت البيت كله - Uyni hammasini sotib oldim.

رايت زينب عينها - Zaynabni aynan o‘zini ko‘rdim. (Mustafo G‘alayoniy, 2010, p. 681).

Ya’ni, yuqoridagi gaplarni sharhiga o‘tadigan bo‘lsak, qo‘lingni ko‘tar (إرفع يديك) yoki, uy sotib oldim (إشتريت البيت) qismlarini o‘zinigina qoldirsak va ularga ta’kidlov so‘zlari orqali tobe bog‘lanishli birikmani hosil qilgan holda qo‘shsak, tushuncha tasavvur maydonini yanada kengayganini ko‘rishimiz mumkin, ya’ni uyni bir qismini yoki yarmini emas, balki barchasini sotib olganligini, uni suratini yoki qarindoshini emas, balki o‘zini ko‘rganligini izohlab ta’kidlab kelmoqda.

Izohlovchi (بـدل) esa, to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zi ergashib kelayotgan so‘zning ma’nosini izohlab, kengaytirib keladi. Masalan:

رأيت الإمام علي – Imom Alini ko‘rdim.

جدد الأمير القصرَ أكثرَه – Amir qasrning ko‘p qismini yangiladi. (Hifzi Nosif, 2008, p. 145).

Ushbu jumlalarda esa Imomni ko‘rdim, deganda tinglovchida aynan qaysi imom degan savol tug‘ilishi, tabiiy.Imom Ali deganda esa, ma’no aspekti inson ongida yanada kenagayadi. Ikkinchi jumlada esa qasrning yangilanishida uning ko‘p qisminini deb izohlanishi yana ham ma’no maydonini aniqlashtiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, arab tilida tobe bog‘lanishni hosil qiluvchilarni nafaqat erobga ergashish xususiyatga ko‘ra, ayni guruhga birlashtiriladi, balki ularning lingvopragmatik xususiyati, ya’ni nutqda qo‘llanganda tinglovchiga ma’no ta’siri jihatidan ham bir guruhga birlashtirishimiz mumkin. Ya’ni tasavvur maydonini chegaralab, aniqlashtiradi. Shu sababli ham arab tili adabiyotlarida ularning ta’rifida (إيضاح) izohlash so‘zi qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Nosif, H. (2008). Grammar lessons. Durus-un nahviyya. – Egypt: Dar-ul-kutub. – 345 p. (in Arabic)
2. Plank, C. Frans, M. (2003). Double articulation. Noun phrase structure in the languages of Europe. – New York: De Gruyter. – 370 p.
3. Safarov, Sh. (2008). Pragmalinguistics. Pragmalingvistika. − Tashkent: Uzbekistan. – 23469 p. (in Uzbek)
4. Shodiyeva, G. (2023). Linguopragmatic features of the language. – Tashkent. – 7 p.
5. G‘alayaniy, M.(2010). Collection of Arabic lessons. Jamiu-d- durusun-ul-arobiyya. – Damascus. – 1200 p. (in Arabic)